



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING
B U Y R U G‘ I

2025-yil “21” iyul

171-son

Toshkent shahri

**Kambag‘allikni qisqartirish va
bandlik vazirligi huzurida
Jamoatchilik kengashini tashkil
etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-sonli Farmoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) hamda keng jamoatchilik o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, vazirlik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, vazirlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, fuqarolik institutlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlash maqsadida, vazirlik huzuridagi jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi) yangi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengashi organi hisoblanadi.

4. Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Vazirlikda nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha mas‘ul etib Axborot xizmati boshlig‘i – vazirning matbuot kotibi (G.Alimova) belgilansin.

6. Axborot xizmati (G.Alimova) Jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi har yili baholanib, uning natijalari vazirlik rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qilib borilishini ta’minlasin, shuningdek, “Yuksalish” harakatining so’roviga asosan Jamoatchilik kengashlari faoliyatiga doir ma’lumotlarni taqdim etib borsin.

7. Moliyaviy resurslarni boshqarish va moliya-iqtisod boshqarmasi (D.Sultanov) vazir o’rinbosarlari va vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo’linmalarining bildirishnomasiga asosan Jamoatchilik kengashining faol a’zolarini budjetdan tashqari mablag’lar hisobidan moddiy rag’batlantirib borilishini ta’minlasin.

8. Tashkiliy-nazorat boshqarmasi (M.To’rabekov) mazkur buyruqni vazirlik tasarrufidagi barcha hududiy tashkilot va muassasalarga ma’lumot va ijro uchun yetkazish choralarini ko’rsin.

9. O’zbekiston Respublikasi Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 25-oktabrdagi 180-sonli buyrug’i o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur buyruq ijrosi nazoratni o’z zimmamda qoldiraman.

Vazir

B. Zaxidov

